

FERUZA XAYRULLAYEVA IJODIDA TASHBEH VA TALQIN***Rajapova Khulkaroy Atabek qizi***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti
hulkaroyrajapova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yosh vakilalaridan biri – Feruza Xayrullayeva ijodiga nazar tashlanadi. Uning ijodida uchraydigan yangicha tashbeh va talqinlar haqida so‘z boradi. Hozirgi zamon o‘zbek yoshlaringning ijodi borasida yangicha tahlillar o‘rtaga tashlanadi.

Kalit so‘zlar: Feruza Xayrullayeva, lirik janrlar tahlili, ko‘z yosh, dard.

Annotation. This article looks at the work of Feruza Khairullayeva, one of the young representatives of modern Uzbek poetry. It talks about new allusions and interpretations found in his work. New analyzes of the creativity of modern Uzbek youth will be revealed.

Key words: Feruza Khairullayeva, analysis of lyrical genres, tears, pain.

Абстрактный. В данной статье рассматривается творчество Ферузы Хайруллаевой, одной из молодых представительниц современной узбекской поэзии. Речь идет о новых аллюзиях и интерпретациях, обнаруженных в его творчестве. Будут раскрыты новые анализы творчества современной узбекской молодежи.

Ключевые слова: Феруза Хайруллаева, анализ лирических жанров, слезы, боль.

Bilamizki, adabiyot – ko‘ngil ishi. Har bir narsa, aytilguvchi yoxud aytilmagan so‘z ham shul ko‘ngildan chiqqaydir. Bu haqida adabiyotshunos olimlarimiz, ijodkorlar bot-bot o‘z fikrlarini bildirganlar. Ijod aslida, shundayin murakkab bir jarayonki, u hech qanday qoliplarga sig‘maydi. Uning aniq fanlarda bo‘lgani kabi sodda-yu murakkab formulalari, teoremlari, nisbiylik nazariyalari yo‘q. U biron-bir qoliplar asosida yoziladigan asar emas, dunyoga keladigan mahsul emas. Shuning uchun ham adabiyotshunoslik ilmiga katta hissa qo‘shtigan olimlar-u, yozuvchilar, shoirlar – barisi adabiyotni ko‘ngil ishi deb baholaydi. Bugun ana shunday ko‘ngil ishi bo‘lmish ijod yo‘lini tutgan yosh shoiralarning asarlarini, she’rlarini o‘qigan o‘qirmanlar zamonaviy o‘zbek adabiyoti yangi o‘zan topayotganiga guvoh bo‘ladi. Ushbu kunda o‘zining yangi ovozi, yangicha nasimlari bilan kirib kelayotgan ijodkorlar borligi haqiqatan quvonarli hodisadir. Ana shunday ijodkorlardan biri,

“she’rlarida ichkin ruhiy yaxlitlik, teranlik bor” (Yosh shoira Tillaniso ta’rifi) bo‘lgan yosh shoira – Feruza Xayrullayeva ijodiga bir nazar tashlasak.

Biz O‘zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning “Adabiyotga e’tibor – kelajakka, ma’naviyatga e’tibor” nomidagi 2009-yilda nashr qilingan asarini o‘qirkanmiz, unda quyidagicha fikrlar bildiriladi: *“Bir so‘z bilan aytganda xalqimiz adabiyotni muqaddas burch deb biladi. Ana shunday bahoning o‘zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so‘zi, chuqur ma’noli asarlariga ishonch, hurmat-e’tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatib turibdi”*¹. Muallifning ushbu asarini o‘qigan har bir kitobxon milliy adabiyotimiz rivoji uchun butun jamiyat mas’ul ekanini anglaydi. Darhaqiqat, bu adabiyot shakllanishi, rivoj topishi, yuksalishi, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlanishi uchun bиргина katta shoir-u yozuvchilar emas, balki butun bir jamiyat mas’ul demakdir. So‘nggi yillarda adabiyot uchun ana shunday sharaflı ishlar amalga oshirilayotgani natijasida bugun ko‘plab yosh iste’dodlar kashf qilinmoqda, xalqqa, keng ommaga ularning ijodlari tanitilmoqda. Ayniqsa, adabiy jarayonda katta ko‘pchilikning diqqatini tortgan holda 2022-yili “Akademnashr” tomonidan taqdim etilgan “Izlam” rukni ostida bir qancha yosh ijodkorlarning she’rlari, asarlari jamlangan tartibda chop etilganini nihoyatda katta hodisa deb baholash mumkin². Feruza Xayrullayevaning br qancha she’rlari adabiy saytlarda ham e’lon qilingan³. Ushbu “Izlam” rukni bilan nashrdan chiqqan Feruza Xayrullayevaning “Tutqun” nomli she’riy to‘plamini esa “Birinchi kitobim” nomi bilan chop etilgan to‘plamidan keyin adabiyotga qo‘ygan yana katta bir qadami deya aytish, e’tirof etish mumkin. Uning she’rlarida hissiyotlar tasviri quyuq bo‘yoqlarda emas, balki shu qadar sodda, shu qadar jo‘n ifodalar bilan zuhurlanadiki, o‘qirman uchun she’rdagi hissiyotni ilg‘ay olish, she’riyatning ruhiyatini tushuna olish, anglash olish biron-bir qiyinchilikni tug‘dirmaydi. Uni ijodini biror kitobxon o‘qirkan, nihoyatda o‘scha oddiy tilda yozilgan bo‘lishiga qaramasdan she’r ohangidagi yuksak hislarni payqamay qolmaydi. Yosh shoira – Feruza Xayrullayeva quyidagi misralarida shunday yozadi:

*Men talosh bo‘ldim,
dardga, hasratga,
xavotir, ko‘zyoshga,
so‘zsizliklar, jimliklar ichra*⁴.

Lirik asarni, jumladan she’riy parchalarni tahlil qilish oson emas. *“Lirik asarlar tahlil bat afsil, chuqur va aniq bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, bu turga mansub asarlarga xos yetakchi belgilarni bilib olish lozim. Adabiyottanuv ilmida lirik turga*

¹ Каримов И. Адабиётга эътибор – маэнавиятгаб келажакка эътибор. – Т. Ўзбекистон. 2009. – Б. 39.

² <https://oyina.uz/kiril/article/1238>

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/feruza-xayrullayeva-sherlar.html>

⁴ Xayrullayeva F. Tutqun. – Т.: Akademnashr. 2022. 28-bet

*xos asosiy xususiyatlar sifatida a) his-tuyg‘uni ifodalashi; b) lahzalik kechinmalar ifodasi o‘laroq hajmi kichik bo‘lishi; v) badiiy nutqning she’riy shakl xosligi; g) juda oz bo‘lsa-da nasriy lirik asarlar ham borligi; d) nutqning monologik shakl ustuvor ekani; e) badiiy zamon – “hozirgi zamon” ekanligi; y) badiiy shaxs – “men” (birinchi shaxs)ligi singari jihatlar sanaladi. Bularidan tashqari, lirik turdag'i asarlarda badiiy obyekt va badiiy subyekt bitta shaxsda uyg‘unlashishi, ya’ni, unda asosan muallifning ichki dunyosini tasvirlash maqsadi bo‘lishi aytildi*⁵. Ba’zan dard, ha, aynan, har bir inson bilgan o‘sha dard insonning mukofoti yoxud shodligi bo‘lishi mumkin. Bu qaysi jihatdan qarashga bog‘liq narsa. Yuqoridaq satrlar muallifi Feruza Xayrullayeva o‘z intervularidan birida ko‘hna dard haqida, ijod o‘zi boshdan-oyoq dard ekanligi haqida shunday bir noodatiy fikr bildiradi: “Ichingdagi dard tugab qolsa, u she’r shunchaki qoralamaga, bilimlarning yig‘indisiga aylanib qoladi”. Nafsilamrini aytganda, dardsiz yozilmaydi hech bir ijod namunasi. Yozilgan taqdirda ham, fikrimizcha , ta’sir kuchi, badiiy mahorati yuksak bo‘lmay qoladi. Bu esa kitobxonni bir qadam orqaga chekintiradi. Umidli shoira “Ichimda dardim, hasratim bor”, - deya oddiy so‘zlashuv uslubida yozmasdan, *jimliklar* maydonida dard, ko‘zyosh, hasrat, xavotir aro tentiraganini, ularga “talash bo‘l”ganini yozadi. She’riyat – nihoyatda noziklik, she’riyat – nihoyatda yuksaklik, she’riyat – nihoyatda injan san’at bo‘lgan jarayon. She’r zero oddiy so‘zlarning ham ifoda yo‘sini betakror tarzda aytilishi kerak bo‘lgan hodisadir, aslida. Yoxud yosh shoiraning dard bilan yo‘g‘rilgan boshqa bir misrasini o‘qisak:

*Oy yuzi oqarar dardlarim tinglab,
Stolda Betxoven yonib yig‘laydi.
Bir paytlar but bo‘lgan siniq deraza
darzini berkitib parda titraydi*⁶.

Uning she’rlarini o‘qigan sari inson, ya’ni she’riyatni tushuna olish, anglay olish, his qila olish, nima demoqchi ekanligini ilg‘ay olish didi bo‘lgan haqiqiy she’rsevar o‘qirman yangicha tuyg‘ularni kashf qiladi, yangicha topmachalarni topa oladi. Feruza Xayrullayevaning ijodini tahlil qilish, aslida, juda mushkul, juda murakkab jarayon. Chunki uning misralarini tahlil maydoniga olib chiqa bilish uchun, avvalambor, bag‘oyat ziyrak, bag‘oyat zehnli bo‘lmoqlik kerak. Sababi esa Feruza Xayrullayeva yosh shoira bo‘lishiga qaramasdan, uni *intellektual* ijodkor deya ayta bilish mumkinligidadir. Yuqoridaq misralarida esa xalqchil ohanglarga tayanib, dardning ifodasini, dardning suratini chizishga intiladi. Oyning o‘zi hamisha oq rangda bo‘lishi inobatga olinsa, bu misrani ilk marotabada o‘qigan o‘qirman yetarlicha tushuna olmasligi mumkin. Ma’lumingizkim, agar inson zoti nimadandir va yoxud kimandir, qandaydir narsadan, voqeа-hodisadan qo‘rqadigan bo‘lsa, ruhiy iztirob cheksa, qattiq

⁵ Йўлдош К., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. 174-бет

⁶ Xayrullayeva F. Tutqun. – Т.: Akademnashr. 2022. 43-bet

hayajonlanib yuborsa rangi oqarib ketishi mumkin. Bu narsani boshqacha bir talqinda ifodalab, yosh ijodkor yuzi oqarib ketishi holatini barcha bilgan “oy”ga ko‘chirib o‘tishi go‘zal tashbeh, o‘zgacha topmachadir. Ruhiy iztirobdan, qattiq qo‘rquvdan insonning yuzi bexosdan oqarib ketishini bilolgan kitobxon ana shundagina ijodkorning qo‘rquinchli dardlarini his qila oladi. Demak ushbu yosh ijodkor shu qadar qora dardlar bilan to‘lgan, shu qadar dardlarga “talash” bo‘lib qolgan ekanki, uning bundayin dardlaridan hattoki, zulmatni oydin qilguvchi oy ham nihoyatda qo‘rqib ketadi. Bu satrlar – haqiqiy topildiq! Bunda yosh ijodkorning badiiy mahoratini ilg‘ay bilish kerak. Bejizga yuqorida ushbu yosh ijodkor – Feruza Xayrullayevaga nisbatan “intellektual” istilohi qo‘llanilgani yo‘q, albatta. Keyingi misralarida esa dardning avj pallasidagi holati qalamga olinadi. Buni tahlilga olib chiqqa olish uchun esa Betxoven hayoti va ijodi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak kitobxon. Dunyoga mashur olmon bastakori, dirijyori, pianinochisi Betxoven ma’lum bir yoshida qulog‘i eshitmay qoladi. Biroq bundayin nihoyatda og‘ir kasallikka chalingan bo‘lishiga qaramasdan bastakor ijod qilishda davom etadi. Mana buni endi zalvorli dard, har kim-da ko‘tara olmaydirg‘an hasrat deyish mumkin. Demak ijodkorning dardi shu qadar kattaki, ijod stolidagi Betxoven faqatgina o‘zining emas, yosh ijodkorning ham dardi uchun kuyinadi, o‘zinikiga qo‘shib, ijodkor uchun ham o‘sha dardi olovda yonadi, yig‘laydi. Bu-da bir topilma! Borgan sari fikrlari quyuqlashib borgan Feruza Xayrullayeva yana davom etadi dardning suratini chizishda. Xonamizdagи derazaga ilingan parda deraza ortida har nimaiki bor, barini to‘sib turadi, hattoki “*siniq deraza*” dardini ham. Endi ushbu misralardagi “*siniq deraza*” ham ramziy ma’noga egaligini alohida ta’kidlamasa bo‘lmaydi. Avval hech qanday g‘uborlar, changlar qo‘nmagan gulogun ranglardan iborat bo‘lgan ijodkor ko‘ngliga darz ketdi. Toza, tiniq hislardan iborat ko‘ngli siniq ko‘ngilga do‘ndi. Bu siniq ko‘ngil ham bir zamonlar but bo‘lgan. Chunki ko‘ngil uyiga tashrif buyurguvchi insonlar artilmagan oyoqlari bilan ostona hatlab o‘tib, dil uyini vayrona qilib chiqib ketdi. Ko‘ngil vayrona ko‘ngilga do‘ndi. “*Siniq deraza*” – “*siniq ko‘ngil*”ning ramziy ifodasi. “*Siniq deraza*” ramziy ifodaga ega bo‘lgan holda, “titrayotgan parda” ham ramziy ma’noga ega bo‘lmay qolmaydi. Xo‘sish, bu satrlarda *parda* istilohi qanday ramziy ma’noga ega? Titrayotgan parda – titroq so‘zlar! Chunki bu titroq so‘zlar “*siniq ko‘ngil*” tubidan chiqib keladi, changlar qo‘ngan, darz ketmasdan avval bir paytlar but bo‘lgan ko‘ngilda chiqib, yosh shoira qalami bilan she’rga do‘nadi. Aytish mumkinki, uning bu kabi tashbehlari uning o‘z yo‘liga ega bo‘lish uchun intilayotganini tajassum etadi. Yosh ijodkor ko‘nglidagi g‘alayon qilib, isyon qilib bosh ko‘targan dardlarni ana shunday quyuq tashbehlari bilan aniq, tiniq tarzda chizib bera olgan. Bu ijodkorning yutug‘idir. Shu o‘rinda ustozlarning bir fikrini keltirsak: “Ko‘ngil – daryo. Undagi tuyg‘ular, o‘ylar, xullas, hali she’riy so‘zga do‘nmagan fikrlar baliq va baliqlar suzib, to‘polon qilib ko‘ngilni chayqatyapti. Shu bois suv yuzi tekis emas. G‘adir-budur. Ko‘ngil notinch bo‘lgan joyda olamning

tinchligi sezilmaydi. Xotirjamlik – odamning ichida bo‘lmasa, dunyoni to‘fon qoplaganday, hamma yoq ostin-ustin bo‘lganday tuyiladi. Balki shoir yangi she’rga – yangi hayotga tayyorlanayotgani uchun ko‘ngil/suv bezovtadir”. Yoxud quyidagi misralari ham hissiyotlar chiroqli tasvirlangan misralardir:

*Maylimi keyinroq gaplashsak?
Yig‘lagim kelyapti hozir juda ham.
Namiqqan uvada yostiqqa
yuzimni bosgancha
senga keraksiz hislarim bilan
yolg‘iz qolmoqchiman⁷...*

Yuqoridagi misralarida yosh ijodkor hislarni aniq va tiniq bo‘yoqlarda tasvirlagani bilan o‘qirmanga o‘sha hissiyotlar jilosini, tuyg‘ularni ham yuqtira oladi. Chunki uning she’riy hislari tiniqlashmagan emas. Unda she’riy surat chizayotganda yog‘li bo‘yoqlardan, mo‘yqalamdan foydalanganini emas, balki tiniqlikni aks ettirib, oddiy qalamdan foydalanganini yaqqol ko‘rish mumkin. Bu misralarida yomonlikni, chirkinlikni o‘ziga yaqinlashtirmsandan toza ruhini avaylashga intilayotgani ko‘rinadi. Yosh shoira o‘zining ichki dunyosini, ichkarisini, ruhiyatini shu qadar toza, ozoda saqlab qolishga urinyaptiki, hatto mana shu nekbin hislariga, sof hislariga har kimni-da, har narsani-da ep ko‘rmayapti, arzitayotgani yo‘q. Bu esa uning ijodida yaxshilik va yomonlik orasi aniq, tiniq ko‘rinib turishini ifodalaydi. U she’rlarida mana shu ikkala qarama-qarshi tushuncha orasiga, ya’nikim, yaxshilik va yomonlik orasiga shu qadar aniq chiziq chizadiki, aynan mana shu jihat ham uning ijodining o‘q chizig‘ini belgilab beradi. Hislarini duch kelganga namoyon qilishlikdan ko‘ra, uni yashirinchha ichida saqlashni, hislari bilan yolg‘iz qolishni afzal deb biladi. Negaki, sof hislarga har kim ham munosib bo‘lavermaydi. Bu she’rida ham nihoyatda go‘zal kartina chizgan Feruza Xayrullayevani chin ma’noda falsafiy yozadigan ijodkor deyish mumkin. Yoki bundan boshqa misralarini tahvilga tortish uchun boshqa bir she’ridan bir parcha keltirsak:

*Hushimga o‘tirmas oqshomning sozi,
Kuyidan anqiysi dilning kuyigi.
Ko‘zimni yumgancha, uyqu so‘rayman,
O, uyqu, kechaning qattol buyugi⁸.*

“Xirgoyi” deb nomlangan she’rida yuqoridagicha ajoyib misralar bor. Feruza Xayrullayevaning ijodini o‘qiganda yaxshi odamni, yaxshi tuyg‘uni darrov bilish mumkin, dimog‘mizga atirgulning ifori keladi, chirkinlikni ham darrov ilg‘agan holda, tabiiyki, ko‘zimizga yosh keladi. Adabiyotda, ayniqsa Sharq adabiyotida oqshom

⁷ Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 16-bet

⁸ Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 14-bet

pallasi insonning romantik tuyg‘ulari, hislari jo‘sh urgan, ko‘ngli yumshagan pallasi bo‘ladi deb qaraladi. Tevarak-atrofda, tasavvur qilinsa, hovuz yoxud kichik bir soy bor va ana o‘sha soyning sokinligini, chigirtkalarning chirillashi-yu, yulduzlarning tunni bezaganini hech bo‘lmasa, kinolarda ko‘rmagan, yoxud kitoblarda o‘qimagan bironta inson bo‘lsa. Atrof oqshom ichra g‘arq bo‘lgan va oqshom o‘z sozi bilan, musiqasi bilan boshqalarni maftun eta olgan bo‘lsa, ijodkor bu narsani hech hushiga keltirmayapti. Negaki, mana shu sozga, musiqaga maftun bo‘lib, hislari aldanganlar, tuyg‘ulari bilan o‘ynashilganlar, dili kuyuklar ham yo‘q emas. Hammani o‘ziga jalb qilishni uddalay olgan bu oqshom sozi ijodkorni ortiq to‘lqlantirmay qo‘ygan. Chunki oqshom kuy chalishni boshlaganida bu avji kuyda nafaqat sof hislar, balki bunda tuproq bilan qorishib ketgan hislar ham kuyylanadi va ushbu kuydan endi dili kuygan, “dilini dilidagilar og‘ritganlar” (Farida Afro‘z misrasi) ning kuyindi hidi dimoqqa kelib uriladi. U kuyib kul bo‘lgan dillarni ham anglamoqda va shu yo‘sinda talqin qilib, o‘quvchiga eskirgan hislarni yangicha ko‘rinishda taqdim etmoqda. Bu-da bir topilma, aslida! Insonda qachon uyqu bo‘lmaydi? Qachonki, unda xalovat bo‘lmasa, xotirjamlik bo‘lmasa! Uning qalbida to‘fonlar isyon qilsa, po‘rtanalar qo‘zg‘alsal! Uyqu bo‘lmoqligi uchun dardlardan forig‘ bo‘lish kerak. Ijodkorning ko‘ziga esa kuyindi dillarning ahvolini o‘ylayvergani uchun uyqu kelmaydi. Shuning uchun “qattol buyuk”, ya’ni uyqu so‘rayapti. Dardlarning nihoyatda og‘irligidan uyqu ham ijodkor xonasiga bostirib kira olmayapti. Aslida, hislar, tuyg‘ular bitta ko‘rinishga ega, u xoh dard bo‘lsin, g‘am, alam, qayg‘u, sevinch, kadar, quvonch, xushbaxtlik, shodlik, xursandchilik yoxud boshqa hislar bo‘lsin. Ammo bularning talqini turlichadir. Har kim dardni turlicha talqin qiladi, har kim sevinchni turlicha talqin qiladi. Ijodkorlar ahlini-ku aytish joiz emas, zero ular har bir tuyg‘uni yong‘orta qilgan holda talqin qilishi eskidan ma’lum. Demak, ijodkor nazarida uyqu insonni ham o‘ldiradi, ham buyuk bir jarayon bo‘la oladi ekan. Bu kabi misralar haqiqiy topilma bo‘la oladi. To‘g‘ri, uyqu ham ibodat, bir vaqtning o‘zida ham g‘aflat qolmoqlik lahzasi bo‘la oladi. Ammo unga “qattol buyuk” istilohining berilishi ham yangicha ta’rif. Shuning uchun ham topilmadir. Bu misralarida yomon xotiralar ustunlik qiladi, chunki bu ijodkor odamlardan nimani kutishni allaqachon bilib bo‘lgan.

She’rini yozishda davom etarkan, yana go‘zal tashbehtar qo‘llaydi va o‘qirmanni bu jarayonni nozik hislarni anglashi uchun asta-sekinlik bilan tarbiyalab boradi:

*Ko ‘zim hatlamagan yoshim bir tomchi –
Seni eslamagan kunim bo ‘Imagan⁹.*

Odatda, badiiy adabiyotda yor eslansa, uning uchun dardda yonib, kuyib kul bo‘lgan boshqa biri tinmasdan hasrat bilan yig‘laganiga guvoh bo‘lamiz. Biroq, Feruza Xayrullayeva ijodiga kelib, bu tushuncha, bunday ifoda yo‘sini takomillashganini

⁹ Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 15-bet

kuzatish mumkin. Yuqorida tahlilga tortilgan misralarida aynan shu jihat bor. Ya’ni, yorni eslab yig‘lamoqlik, ko‘zlarini namlar ichra qoldirmoqlik yosh shoira ijodida o‘zgacha fikr, o‘zgacha tasavvur, o‘zgacha qarash bilan talqin qilinadi. Hamma yorni o‘ylab yig‘lasa, ijodkorning yig‘lagisi kelmaydi. Negaki, u o‘z ko‘z yoshini to‘kmoqchi emas. Ijodkorning ko‘z yoshlari uning ko‘zlaridan bir qadam ham *hatlab* tashqariga chiqmasligi kerak va bunga ruxsat bera olmaydi. Chunki ijodkor istaydiki, yorning xotiralari ko‘z yoshdan iborat bo‘lsa ham ijodkorning yuragida qolsin. Yosh ijodkor agar yig‘lasa, yor bilan bog‘liq qaysidir xotiralari uning dilidan, yuragidan selobi ashk, ya’ni kanora bilmas ashk, ko‘z yosh vositasida chiqib ketishini biladi. Undan ko‘ra ijodkorning o‘zi bilan qolgani ma’qul. Va shu zaylda yor eslanaveradi, yodga kelaveradi, xotiralarni tark etmoqlikni aslo bilmaydi. Aynan mana shu satrlari bilan umidli, iste’dodli, yosh ijodkor yana bir go‘zal kartinaga qo‘l urgan.

*Eshik tutqichining tovushi go ‘zal,
Jaranglar yolg‘izlik ohangi aro.
Men sezib turibman gal dagi ishonch
Erta sahar chog‘i qilishn qazo¹⁰.*

Yor ijodkorning ancha vaqt kutishiga arzimasa ham, munosib, loyiq bo‘lmasa ham, ijodkor uni har kuni kutadi va bu kutishni ham bag‘oyatda o‘zgacha fikrlar, yangicha tashbehlar bilan tasavvurda zuhurlantiradi. Yana yor bilan bog‘liq xotiralarni o‘quvchi oldida izohlashni davom ettirarkan, har bir hujayralarigacha, vujudining har bir zarrasiga qadar unda yorning yodi bor va undan hali-hanuz xalos bo‘la olmayotganini so‘zlaydi. Tasavvur qiling, suv to‘la idish turibdi. Unga yana suv quymoqchisiz. Unga suv quyishdan avval idishni to‘laligicha bo‘shatish kerak. Aks holda bir tomchi ham suv quyishlikning iloji yo‘q. Yor yodi ham ana shundaydir. Uni unutmoqlik kerak. Ammo unuta olmayapti va shuning uchun ijodkorda o‘zidan boshqa hamma narsa bor. Ijodkorni o‘zi tark etib bo‘lgan, ammo yorning xotirasi hamon yashamoqda. Bir tomondan yor kelishidan umidvor, biroq undan biron-bir xabar yo‘q. *Yolg‘izlik* ichida har lahza uni ko‘zlaydi va kelmasligini ham “sezadi”, biladi. Lek, kutishdan charchamaydi. Ammo kutgani befoyda. Eslashi – besamar kor. Shuning uchun ham har daf‘a uning ishonchi olamdan o‘taveradi, *qazo* qilaveradi, uning ishonchi hamisha bu dunyodan ko‘z yumib ketadi, bu dunyodan bosh olib ketadi. Mana bular ishonchning so‘nishi haqida haqida yangicha talqin bo‘la oladi. Bu ham yosh ijodkorlarda kuzatilayotgan originallikka misol, aslida. Yoxud yana bir go‘zal satrlarida yig‘i haqida quyidagicha yozadi:

*Aql dan ozib yig‘lay boshlaydi
Ichimga qamalgan azaliy*

¹⁰ Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 15-bet

Yig'i¹¹

Yuqoridagi parcha ham noyob bo‘yoqlar bilan chizilgan tasvirga o‘xshaydi. Inson siyratini shundayin tasvirlaydiki, aniq, tiniq ko‘rinib turadi undagi botiniy hislar, botiniy tuyg‘u, botiniy dunyo. Endi bu satrlarida “qattiq yig‘lamoqlik, yig‘lagisi kelsada yig‘layolmayotganlik” tasviri bor. Barchaga ma’lum “yig‘lagim keldi va shuning uchun yig‘ladim” tarzidagi gapdan qochib, uning ideal kartinasini ishlab, o‘quvchiga qayta taqdim etyapti. Yoxud yana bir she’rida shundayin yozadi yosh ijodkor Feruza Xayrullayeva:

*Ko‘z yoshlarimni qayta-qayta
ichkariga qamayveryapman¹².*

Agar ichkariga qamalmasa u ko‘z yoshlar sirlarni ochib qo‘ymasligi amrimahol. Shuning uchun ularni kishanband qilib, ko‘z javharida, qorachig“ida saqlaydi. Shuning uchun uning ko‘zlarini ko‘z yosh tomchilari bir qadam “hatlab” tashqariga chiqmaydi, ular qamalishga mahkum. Oddiy, soddacha qilib aytganda, ijodkor ko‘z yoshini tiyib turibdi, yig‘lay olmayapti. Demak, bularning barchasi o‘zining o‘zaniga ega bo‘lish maqsadida kirib kelayotgan Feruza Xayrullayevaning ijoddagi badiiy topilmalari, yangicha nigohlar bilan boqilgan eski dunyoning yangicha tasavvuridir. Demak, faqatgina sevgi emas, hislarning bari – shodlik, kadar, g‘am, sevinch, quvonch, g‘ubor, xursandchilik ham allaqachonlar eskirib bo‘lgan, faqatgina ular ham yangilanadi, har bir hisda har bir inson yangilanish qiladi, albatta. Feruza Xayrullayeva tabiatni ham kuzatadigan shoira ekanini quyida berilgan misrasi orqali anglash mushkul emas:

*Tog‘lar ergashadi, ming yildan buyon
muzlagan boshini quyoshga tutib¹³.*

Bu ijod namunasi bilan Xudoni tanish istagida bo‘lgan ijodkor, she’rxonning peyzaj – tabiat tasviri bilan bog‘liq tushunchalarini, ko‘z oldidagi tasavvurini shakllantira oladi. “Muzlagan bosh” – tog‘ning qorli cho‘qqilarini. Va bu yangicha tashbeh, yangicha bir qarash. Bu yerda quyoshning nurlari butun dunyoga nur sochishi holda, ming yildan beri tog‘larning ham qorlar makon qilgan cho‘qqilariga nur sochmasdan qo‘ymasligini ifoda etmoqchi.

Muxtasar qilib aytganda, Feruza Xayrullayeva haqiqiy intellektual ijodkor. Uning she’rlarida falsafiylik kuchli va uning ijodida topilmalar yaqqol ko‘rinib turibdi. Hissiyotlarni ifoda etish ustunlik qiladi. Eng muhimi esa, ijodkor o‘zini bir xil qolipda qolib ketishdan olib qochyapti. O‘zini-o‘zi qayta-qayta takrorlamaslikka intilyapti. Har takror chunki jonga tegadi, har takror insonni zeriktiradi. Inson takrorlarga emas, o‘z

¹¹ Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 23-bet

¹² Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 47-bet

¹³ Xayrullayeva F. Tutqun. — T.: Akademnashr. 2022. 61-bet

nomi bilan yangiliklarga o‘ch bo‘ladi. Shuning uchun garchi o‘xshamasa ham, takror so‘zi yana takrorlagandan ko‘ra, yanglishliklar bo‘lsin, xatoliklar bo‘lsin, baribir, o‘z so‘zini aytmoqlik kerak. Feruza Xayrullayevada esa ana shunday qarash bor va bu qarash uning qalamiga mansub satrlarida bilinib turadi, ya’ni o‘zini takror etib kelmaydi. Garchi har safar yangilikka intilib yozsa ham, baribir, uning she’riyatida milliy ohanglar bo‘y berib turaveradi. Chunki milliylikni, milliy ohangni saqlab qololgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т. Ўзбекистон. 2009. – Б. 39.
2. <https://oyina.uz/kiril/article/1238>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/feruza-xayrullayeva-sherlar.html>
4. Xayrullayeva F. Tutqun. – Т.: Akademnashr. 2022. 96 b.
5. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. 310 б.